

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UO‘K:81.11.112

ORCID ID: 0000-0002-4640-601X

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SUBSTANDART BIRLIKLARNING TURLI NUTQIY AKTLARDAGI SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI

Satimova Dilafruz Numonjonovna

Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc)

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

dilmus09@gmail.com +998902585880

Annotatsiya. Tadqiqotda pragmatika zamonaviy tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida konseptual jihatdan tahlil etilib, uning nazariy asoslari va metodologik xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi substandart til birliklarining assertiv, direktiv, kommissiv, konfliktiv va ekspressiv kabi nutqiy aktlar doirasida qo‘llanish xususiyatlari sotsiopragmatik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu qiyosiy tadqiqotning nazariy-amaliy material sifatida jinoiy diskurs doirasida tanlangan o‘zbek va ingliz tillaridagi adabiy namunalar – Tohir Malikning “Shaytanat” romani hamda Mario Puzoning Amerika mafiya olamini ifoda etgan “Cho‘qintirgan ota” (The Godfather) asarlari asosida jinoiy substandart leksik va frazeologik birliklarning qo‘llanishi kompleks tarzda chuqur lingvistik-pragmatik tahlil qilinadi. Shuningdek, pragmatik tahlilning muhim komponentlari sifatida presuppozitsiya, implikatura, illokutsiya, perlokutsiya hamda nutqning eksplitsit va implitsit shakllari ham ajratilib, ular diskursiv-nutqiy kontekstda lingvistik metodlar yordamida batafsil tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: pragmatika, nutqiy aktlar, assertiv, direktiv, kommissiv, konfliktiv, ekspressiv, substandart leksika, jinoiy argo, frazeologik birliklar, implikatura, presuppozitsiya, illokutsiya, perlokutsiya, invektiv leksika

SOCIOPRAGMATIC ANALYSIS OF SUBSTANDARD UNITS IN DIFFERENT SPEECH ACTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. The study conceptually analyzes pragmatics as an independent direction of modern linguistics, reveals its theoretical foundations and methodological features. The article provides a comparative sociopragmatic analysis of the use of substandard linguistic units in English and Uzbek within the scope of such speech acts as assertive, directive, commissive, conflictive and expressive. Based on the literary samples in Uzbek and English selected within

the framework of criminal discourse as the theoretical and practical material of this comparative study – Tahir Malik’s novel “Shaytanat” and Mario Puzo’s works “The Godfather”, which depicts the world of the American mafia, a complex in-depth linguistic and pragmatic analysis of the use of criminal substandard lexical and phraseological units is carried out. Moreover, as important components of pragmatic analysis, presupposition, implicature, illocution, perlocution, and explicit and implicit forms of speech are distinguished, which are studied in detail in a discursive-speech context using linguistic methods.

Keywords: pragmatics, speech acts, assertive, directive, commissive, conflictive, expressive, substandard lexicon, criminal argot, phraseological units, implicature, presupposition, illocution, perlocution, invective lexicon

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СУБСТАНДАРТНЫХ ЕДИНИЦ В РАЗЛИЧНЫХ РЕЧЕВЫХ АКТАХ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. В исследовании концептуально анализируется прагматика как самостоятельное направление современной лингвистики, раскрываются ее теоретические основы и методологические особенности. В статье проводится сравнительный социопрагматический анализ особенностей употребления субстандартных языковых единиц в английском и узбекском языках в таких речевых актах, как асертивный, директивный, коммиссивный, конфликтный и экспрессивный. В качестве теоретического и практического материала данного сопоставительного исследования всесторонне и глубоко анализируется употребление криминальных ненормативных лексических и фразеологических единиц с лингвистической и прагматической точек зрения на основе отобранных в рамках криминального дискурса литературных образцов на узбекском и английском языках – романа Тахира Малика “Шайтанат” и произведения Марио Пьюзо “Крестный отец” (The Godfather), в котором изображен мир американской мафии. Также в качестве важных компонентов прагматического анализа выделяются пресуппозиция, имплицатура, иллокуция, перлокуция, эксплицитные и имплицитные формы речи, которые подробно изучаются с использованием лингвистических методов в дискурсивно-речевом контексте.

Ключевые слова: прагматика, речевые акты, асертивный, директивный, коммиссивный, конфликтный, экспрессивный, субстандартная лексика, криминальный аргот, фразеологические единицы, имплицатура, пресуппозиция, иллокуция, перлокуция, инвективная лексика.

KIRISH

Til orqali amalga oshiriladigan muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan suhbat ishtirokchilarining verbal kommunikatsiya jarayonidagi pragmatik kompetensiyasiga bog‘liqdir. Pragmatika, tilshunoslikning alohida tarmog‘i sifatida, aynan mana shu samaradorlikni ta’minlash uchun verbal kommunikatsiya ishtirokchilarining intensiyasi

(maqsad-muddaosi), kontekstual sharoitlar, adresant va adresat munosabatlari kabi omillarni chuqur o‘rganishga qaratilgan yo‘nalish hisoblanadi.

Dastlab falsafiy yo‘nalishda shakllangan **pragmatika** termini yunoncha *πρᾶγμα* (pragma) — “ish, harakat, amaliyot” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, semiotikaning muhim bo‘lagi sifatida Ch.S.Pirs [4, 302] va Ch.W.Morris [3, 59] tomonidan tizimlashtirilgan. Ch.Morrisga ko‘ra, semiotika *semantika* (belgi va obyekt orasidagi munosabatlar), *sintaktika* (belgilararo munosabatlar) hamda *pragmatika* (belgilar va ularning foydalanuvchilari orasidagi munosabatlar) kabi uchta asosiy sohaga bo‘linadi [3, 27]. Bunda pragmatika nutqiy belgilar va ularni qo‘llayotgan inson (adresant va adresat) munosabatlari, muloqotdagi niyatlarni tadqiq qiladi.

Ijtimoiy tajribaning keng qamrovliligi tufayli, muloqot vaziyatlari o‘zgarib turadi hamda boshlang‘ich holatda oddiy tuzilishda bo‘lgan pragmatik struktura o‘zgarib, murakkablashib boradi. Bu esa, o‘z navbatida, pragmatikaning to‘xtovsiz semantik qobig‘i kengayib borishiga olib keladi. Demak, lisoniy tahlilni pragmatikadan boshlamoq zarur [7, 40].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvistik pragmatika o‘tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi va ayni davrdan boshlab uning ko‘lamli rivojlanishi kuzatildi, jumladan, S.C.Levinson, J.L.Mey, J.L.Ostin, J.R.Serl, H.P.Grays, Z.Vendler, R.Stolnaker, J.Lich, Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunova, G.Klaus. Pragmatikaning ilmiy tadqiq etilishiga Jon Ostin va Jon Searl tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi katta hissa qo‘shdi. J. Searlning nutqiy aktlar nazariyasiga ko‘ra, til faqat informatsiyani yetkazish vositasi emas, balki u orqali insonlar real harakatlar, ijtimoiy vazifalar, psixologik ta’sirlar va amaliy maqsadlarni amalga oshiradi [8, 78]. Shu sababli pragmatik tadqiqotlarda implikatura [2, 42], presuppozitsiya, perlokutsion ta’sir, nutqiy aktlarning illokutsion kuchi [1, 96], evfemizm kabi tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. Nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra, inson nutqi faqat axborot yetkazuvchi vosita emas, balki real harakatlarni amalga oshiruvchi vosita hamdir. Bu nazariya doirasida nutq assertiv (tasdiqlash), direktiv (buyruq berish), komissiv (va’da berish yoki tahdid qilish), ekspressiv (hissiyot ifodasi) va deklarativ (ijtimoiy holatni o‘zgartirish) kabi aktlarga ajratiladi.

Tadqiqotimizda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

- Qiyosiy-chog‘ishtirma metod (ingliz va o‘zbek tillaridagi substandart birliklarni pragmatik va semantik jihatdan taqqoslashda qo‘llandi);
- Komponentli semantik tahlil metodi (jinoiy substandart leksik va frazeologik birliklarning ichki semantik strukturasini aniqlash uchun qo‘llanildi);
- Pragmatik diskurs-tahlil metodi (nutq aktlaridagi implikatura, presuppozitsiya, perlokutsiya va boshqa pragmatik jihatlarni aniqlashda qo‘llandi);
- Kontrastiv metod (ikkita tildagi jinoiy argo va frazeologizmlarning pragmatik va struktur-semantik jihatdan farqli va umumiy tomonlarini ochib berishda qo‘llanildi);

➤ Kontekstual tahlil metodi (jinoyiy birliklarning nutqiy va situativ kontekstda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashda foydalanildi).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Til insonning nutqiy yoki yozma shakldagi kommunikativ harakatlarini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur kommunikativ harakatlarning bajarilishi davomida til birliklari, birinchi navbatda gaplar, o‘zlarining asl leksik ma’nolaridan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish hamda va’da berish kabi pragmatik vazifalarni ham o‘zida mujassam etadi. Ushbu pragmatik vazifalar nutq subyekti tomonidan muloqot jarayonida amalga oshirilayotgan nutqiy faoliyat mahsulidir. Binobarin, nutqiy akt so‘zlovchi tomonidan muayyan kommunikativ vaziyatda aniq kommunikativ maqsadga qaratilgan lisoniy murojaat shaklidir.

Demak, nutqiy akt – ma’lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir [7,78]. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma’nosining so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan boyitilishi, idrok etilishi natijasidir.

J. Serl nutqiy aktlarni mazmuniga qarab besh turga ajratadi [8, 104]. Birinchisi – **assertivlar** bo‘lib, bunda gapiruvchi ma’lum bir axborotning haqiqat ekanligini tasdiqlaydi yoki rad etadi. Ikkinchi tur – **direktivlar**, bunda tinglovchini muayyan harakatga undash, buyurish, savol berish, iltimos qilish yoki ogohlantirish kabi harakatlar ko‘zda tutiladi. Uchinchi tur – **kommissivlar** bo‘lib, bunda gapiruvchi tinglovchi oldida biror va’da beradi yoki tahdid qiladi. To‘rtinchi guruh – **deklarativlar**da gapiruvchi nutqi orqali mavjud voqelikni o‘zgartiradi yoki yangi holat yaratadi. Nihoyat, **ekspressivlar** esa tabrik, ta’ziya bildirish kabi nutqiy harakatlarda gapiruvchining his-tuyg‘ularini, munosabatini ifoda etadi.

Shuningdek, pragmatikaning nutq nazariyasi, nutq aktlari tipologiyasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika va diskurs tadqiqotlari bilan yaqin aloqada rivojlanishi ham kuzatiladi. Pragmatika hozirgi kunda nafaqat tilshunoslikning, balki madaniyatshunoslik, antropologiya va kommunikatsiya nazariyasining muhim metodologik negizi sifatida ham o‘z mavqeini mustahkamladi. Bugungi kunda pragmatika, ayniqsa, madaniyatlararo kommunikatsiya, siyosiy va jinoyiy diskurs tahlillarida keng qo‘llanilmoqda va amaliy tilshunoslikning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Jinoyiy diskursda pragmatik nutqiy aktlarning o‘rni ayniqsa sezilarli bo‘lib, bunda jinoyiy argo va frazeologizmlar nutqning yashirin pragmatik yuklamasini uzatishda ahamiyatlidir. Jinoyatchilar o‘z nutqida ochiq zo‘ravonlikni bevosita aytmasdan, evfemistik iboralar yoki implikatura yordamida tinglovchilarda kuchli perlokutsion ta’sir uyg‘otadi.

– Jinoyiy frazalar, ko‘pincha, keng ma’noda metaforik ifodalar orqali berilib, jinoyatchilik diskursining lingvistik va sotsiomadaniy boyligini ochib beradi. Translatsiya va tahlil jarayonida ushbu frazalar o‘zining ko‘p qatlamli semantik ma’nolari sababli alohida e’tiborni talab etadi, chunki ular shunchaki og‘zaki nutq elementi emas, balki maxfiy ijtimoiy munosabatlarning ko‘zgusidir:

– *Shomilmi?*

– *Otini bilmayman. Kelasolib tomog‘imdan bo‘g‘di. «Asadbekning kasalini aytasan», deb turib oldi. «Aytmasang **o‘lasan**», dedi.*

«Ha, bu – Shomil, – degan qarorga keldi Kesakpolvon. – Bu xunasa qaerdan is oldi? Asadbekning kasali bilan nega qiziqdi?»

– Aytdingmi?

– Ha.

– *Qasamni buzgan bo‘lsang... o‘lishing kerak.* (Tohir Malik. Shaytanat. Qissa. 3 – kitob, 8)

Mazkur kontekst pragmatik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, unda **direktiv**, **kommissiv**, shuningdek, **konfektiv** nutqiy aktlar (illokutiv maqsadlar va ijtimoiy maqsadlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar) namoyon bo‘ladi. Dialogdagi *Qasamni buzgan bo‘lsang... o‘lishing kerak* degan fraza ochiq tahdid sifatida **kommissiv** nutqiy akti ifodalaydi, bunda **illokutiv** maqsad (gapiruvchining niyati – jazolash) va **ijtimoiy** maqsad (tinglovchini qasamyodga amal qilish orqali intizomga chaqirish) qarama-qarshi tarzda birlashadi va **konfektiv** nutqiy akti hosil qiladi. Bundan tashqari, *Bu xunasa qaerdan is oldi?* kabi ekspressiv nutqiy aktlar gapiruvchining salbiy munosabati, jirkanishi va nafratini ifoda etuvchi haqorat shaklida ishlatilib, tinglovchida pastkashlik hamda beqadr ekanlik hissini uyg‘otadi – **perlokutsion** effekt. Muloqotda ishtirokchilar bir-birlarining shaxsiyati, jinoyat olamidagi mavqei, qasam va unga amal qilmaslik oqibatlarini oldindan bilgan holda gaplashmoqda, **presuppozitsiya** mavjud. Mazkur nutqning **perlokutsion** ta’siri esa, tinglovchida qo‘rquv va itoat hissini shakllantirish bo‘lib, u suhbatdoshga mutlaq bo‘ysunishga undaladi. *Xunasa* leksemasi invektiv leksika bo‘lib, u *yaramas*, *ablah*, *razil* kabi haqoratomuz ma’nolarda qo‘llanilgan. *Is oldi* birikmasi esa so‘zma-so‘z *hid oldi* degan ma’noda bo‘lib, ko‘chma ma’noda jinoyat olamida *sezib qoldi*, *payqab qoldi*, *xabardor bo‘ldi* – ya’ni yashirin ma’lumotni ilg‘adi yoki xufyona ravishda bir gapni bilib oldi degan mazmunni anglatadi.

Bundan tashqari, “Shaytanat” [5] asariga monand Amerika mafia olamini ochib bergan Mario Puzoning “The Godfather” (Cho‘qintirgan ota) [9] asarida ham substandart birliklarning turli nutqiy aktlarda ifodalanishini pragmatik prinsiplarini ko‘rishimiz mumkin:

In less than a year he had “made his bones”. He could never turn back. Clemenza sang his praises. Neri was a wonder, the new Luca Brasi. He would be better than Luca, Clemenza bragged. After all, Neri was his discovery. Physically the man was a marvel. His reflexes and coordination such that he could have been another Joe DiMaggio. Clemenza also knew that Neri was not a man to be controlled by someone like himself. Neri was made directly responsible to Michael Corleone, with Tom Hagen as the necessary buffer. He was a 'special' and as such commanded a high salary but did not have his own living, a bookmaking or strong-arm operation. (Mario Puzo. The Godfather. Chapter 30, 360)

Oradan bir yil o‘tmasdan, uning xizmat ro‘yxatida odam o‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat paydo bo‘ldi. Endi bir umr orqaga qaytishga yo‘l yo‘q edi. Klemensa uni ko‘klarga ko‘tarib maqtardi: Neri bag‘oyat zo‘r, yangi Lyuka Brasi. Klemensa, shuningdek, tezdayoq Neri saroregime qo‘l ostida qoladigan odam emasligini ham tushundi. Vaholanki, uning saroregimesi o‘zi edi. Nerini Maykl Korleone va Tom Xeygen o‘rtasidagi qalqon sifatida

bevosita Maykl ixtiyoriga o‘tkazishdi. (Чўқинтирган ота ёхуд мафия сардори. Турсунбой Адашбоев ва Мухаммаджон Ўринбоев таржимаси, 517)

Taqdim etilgan kontekstdagi *made his bones* jinoiy iborasi pragmatik jihatdan **assertiv** (tasdiqlovchi) nutqiy akt turiga mansub bo‘lib, mazkur idiomaning ma’nosi mafiya muhitida shaxsning o‘ziga nisbatan ishonch hosil qilish, nufuz qozonish uchun amalga oshirgan jiddiy jinoyati yoki suiqasd akti orqali o‘zini isbotlashini bildiradi. Bu frazema *kill* yoki *murder* kabi so‘zlarning o‘rniga metaforik tarzda qo‘llanilgan. *Lokutiv* akt sifatida, mazkur ibora so‘zma-so‘z *suyaklarini yasadi* deb tarjima qilinsa-da, asl kriminal semantikasi *jinoyat yoki qotillik orqali o‘ziga nisbatan ishonch va hurmat hosil qilish* degan *implitsit* ma’noga ega. *Illokutiv* kuch jihatidan ushbu nutqiy aktning mohiyati Klemenzaning assertiv tarzda Neri haqida bergan bahosini ifodalab, uning mafiya olamidagi o‘bro‘si va ishonchini belgilaydi. *Perlokutiv* ta’sir tomondan esa, kitobxon bu iborani eshitganidan so‘ng Neri haqiqatan ham mafiya ichida o‘z obro‘-e’tiborini mustahkamlab bo‘lganligini anglaydi, ya’ni uning endilikda jinoyat dunyosida ortga qaytish imkoni yo‘q ekanligini tushunadi. Keltirilgan ibora o‘zida *presuppozitsiyani*, xususan Neri oldin qotillik yoki shunga teng jinoyat sodir etganligini yashirin tarzda bildiradi, shuningdek, implikatura jihatdan endi uni boshqa yo‘l yo‘qligi, u mafiyaning tarkibiy qismi ekanligi ochiq aytilmasdan anglatiladi. Bu iboraning ma’nosi faqat kriminal kontekstda to‘liq tushuniladi. Oddiy sharoitda qotillikni sodir etish qoralanadi, lekin mafiya olamida bu tashkilotga qabul qilinish uchun zaruriy qadam bo‘lishi mumkin.

1. **Illokutiv kuch** – Qotillikni sodir etish orqali shaxs *oddiy* inson bo‘lishdan mafiya a’zosiga aylanadi, ya’ni jinoyat olamida hurmat qozonish uchun shafqatsiz bo‘lish kerak. Bundan tashqari, keltirilgan ibora shuningdek, baholash nutq aktini ham qamrab olib shaxsning qilmishini *muvaqqiyatli* yoki *qabul qilinadigan* deb baholaydi.

2. **Perlokutiv effekt** – boshqa mafiya a’zolarida qo‘rquv, hurmat yoki ishonch uyg‘otishi mumkin. Mafiya tarkibidagi a’zolardan biri *made his bones/odam o‘ldirish* harakati bo‘lgandan so‘ng, ana shu shaxsga nisbatan jiddiyroq munosabatda bo‘linadi va uning fikri doimo inobatga olinadi.

1. **Implikatura** – shaxsning kelajakdagi xatti-harakatlari haqida ma’lumot beradi, jinoyat olamidagi bu shaxs endi mafiya qonunlariga bo‘ysunadi va to‘da uchun har qanday jinoyatga tayyor bo‘lishi kutiladi.

2. **Illokutiv kuch** – mafiyaviy odob-axloq me’yorlarini tushuntiradi, ya’ni jinoyat olamida hurmat qozonish uchun shafqatsiz bo‘lish kerak.

3. **Perlokutiv ta’siri** – tinglovchida mafiyaga qo‘shilish jarayonining shafqatsiz ekanligi haqida tushuncha hosil qiladi.

J. Serl tomonidan nutqiy aktlar turiga ta’rif berilganda, direktivlar – bu so‘zlovchi tomonidan tinglovchini ma’lum bir harakatni qilishga undashga qaratilgan aktlar sifatida tasniflanadi [8, 79]. Direktivlar nutqiy aktlar orasida boshqalarni ma’lum bir harakatni bajarishga undashga qaratilgan bo‘lib, ular odatda buyruq, iltimos, tavsiya yoki ogohlantirish

shaklida ifodalanadi. Bunda adresatga faqat bajarilishi kerak bo‘lgan harakatni bildirmaydi, balki uning xavfli oqibatlarini ham ko‘rsatadi.

*Hagen shrugged. “Sollozzo is really damn smart. He’s playing this close to the vest, so close that he’s not using any men as a cover. He figures the captain will be enough and that security is more important than guns. He’s right too. We’ll have to **put a tail on** Mike and hope for the best.”* (Mario Puzo. The Godfather. Chapter 11, 121)

*Heygen og‘ir nafas oldi. – Ular **orqasidan avg‘oqchi qo‘yishdan** va taqdirga umid bog‘lashdan boshqa choramiz yo‘q.* (Чўқинтирган ота ёхуд мафия сардори. Турсунбой Адашбоев ва Муҳаммаджон Ўринбоев таржимаси, 199)

*Xeygen yelka qisdi. “Sollozzo juda aqlli. U buni juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirmoqda, shunchalik ehtiyotkorlik bilan-ki, hattoki hech qanday odamni himoya sifatida qo‘llamayapti. U kapitanning o‘zi yetarli deb o‘ylaydi va xavfsizlik qurollardan ko‘ra uni muhimroq deb biladi. U haqlidir. Biz Maykni **kuzatishimiz kerak** va yaxshilikka umid qilamiz.”* (Erkin tarjima)

Yuqoridagi kontekstdagi *put a tail on Mike* (so‘zma-so‘z tarjima *dum qo‘ymoq*) kriminal idiomasi pragmalingsvistik aspektdan nutqiy akt nazariyasi tomondan tahlil qilinadigan bo‘lsa, J.Syorlning nutqiy aktlar tasnifidagi **direktiv** nutqiy aktlar (tinglovchini muayyan faoliyatga undash) turiga mansubdir. Aniqrog‘i, bu jumla *buyruq-iltimos* shaklidagi *illokutiv* kuchga ega bo‘lib, tinglovchi (ijrochi)dan Maykga yashirin kuzatuv qo‘yish talab qilinmoqda. Bu nutqiy aktning illokutiv maqsadi Maykning xavfsizligini ta‘minlash va ehtimoliy tahlikali vaziyatlarning oldini olishdir. Ushbu idiomadagi *eksplitsit* (ochiq ifoda etilgan) so‘zlarning ortida yashiringan *implitsit* ma‘no mavjud bo‘lib, bunda kuzatish, nazorat qilish, yashirincha ergashish degan kriminal konnotatsiyalar joy olgan. Shu bilan birga, kontekstda *presuppozitsiya* (oldindan mavjud bilimlar) orqali tinglovchining *Sollozzo* tomonidan xavf mavjudligini oldindan bilgani nazarda tutilgan. Shuningdek, *perlokutiv* natija (tinglovchi tomonidan amalga oshiriladigan harakat ta‘siri) Maykning xavfsizligini ta‘minlash bo‘lib, bu harakat orqali adresatga mas‘uliyat yuklatilmoqda.

1. **Illokutsiya** – Maykni maxfiy ravishda kuzatish, uning harakatlarini nazorat qilish zarurligini bildirish. Hagenning maqsadi – reja tuzish, taklif kiritish.

2. **Nutqiy aktlarning** turlari 3 xil holatda ko‘rinadi:

a) **Taklif** – Hagen Maykni kuzatishni taklif qilmoqda;

b) **Ogohlantirish** – Mayk xavf ostida ekanligini va uni himoya qilish kerakligini ogohlantirmoqda;

c) **Buyruq** – Yashirin holda Maykni kuzatish bo‘yicha ko‘rsatma bermoqda.

3. **Perlokutsiya** – adresatda Maykning xavfsizligi haqida xavotir uyg‘otishi mumkin;

4. **Implikatura** – Hagenning gapi shunchaki kuzatuv zarurligini emas, balki Maykning xavf ostida ekanligini, dushmanlar uni kuzatayotgan bo‘lishi mumkinligini ham nazarda tutadi;

5. **Eksplitsit** – *We’ll have to put a tail on Mike* – so‘zma-so‘z tushunchada Maykl ortidan kuzatuv o‘rnatish kerakligi aytilmoqda;

6. **Implitsit** – Sollozzo harakatlarini yashirin ravishda olib borayotgani sababli, ochiq to‘qnashuv yoki qurol ishlatishdan ko‘ra, kuzatuv orqali uning rejalari haqida ma’lumot yig‘ish muhimroqdir. Hagenning bu tavsiyasi mafiiyaning an’anaviy strategiyasiga asoslanadi, ya’ni ular dushmanlarini oldindan kuzatib, keyin reja tuzishadi. Mayk ehtimoliy suiqasd yoki tahdid ostida bo‘lishi mumkin, shuning uchun uning harakatlarini doimiy nazorat qilish kerak.

XULOSA

Xulosa shuki, jinoyat diskursida qo‘llaniladigan jinoyiy argo va invektiv leksika boshqa substandart til birliklariga qaraganda ko‘proq pragmatik elementlarni qamrab olishi bilan ajralib turadi. Nutqiy aktlar nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, jinoyatchilar muloqotidagi har bir ifoda kuchli illokutsion niyatini ifodalab, muayyan perlokutsion ta’sirga (masalan, qo‘rqitish, tahdid, undash, itoatga majburlash yoki birdamlikni mustahkamlash, tasdiqlash) qaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, bu til qatlamlari faqat guruh a’zolarigagina tushunarli bo‘lgan umumiy presuppozitsiyalarga tayanadi va implikaturalar orqali ko‘pincha eksplitsit tarzda ifoda etilmagan ma’nolarni uzatadi, ya’ni mazmunning asosiy qismi implitsit ma’no strukturalarida ifodalanadi. Shuningdek, deysis vositalarining faol qo‘llanilishi kontekst hamda ishtirokchilarga doir ishoralarni aniqroq belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Harvard University Press, 1962. – 167 p.
2. Grice H. P. Logic and Conversation. // Syntax and Semantics, vol. 3, edited by Peter Cole and Jerry L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
3. Morris Ch. W. Foundations of the Theory of Signs // International Encyclopedia of Unified Science. University of Chicago Press, Vol. 1, No. 2, 1938. – P. 1-59.
4. Peirce Ch. S. How to Make Our Ideas Clear // Popular Science Monthly. Volume 12, 1878. – P. 286-302.
5. Puzo Mario. The Godfather. 50th Anniversary ed., with a new introduction by Francis Ford Coppola. – USA: Penguin Publishing Group, 2005. – 496 p.
6. Пьюзо Марио. Чўқинтирган ота ёхуд мафия сардори: роман. Турсунбой Адашбоев ва Муҳаммаджон Ўринбоев таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 544 б.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.
8. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – United Kingdom: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
9. Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 480 b.